



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– mart holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **0,8 mingtaga o'shdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi 5.8 % **ni tashkil etdi.**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **0,9 mingtaga oshgan.**

2018 yilning yanvar-mart oyida Andijon viloyatida 1,2 mingga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,3 mingtaga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,6 % ga ko'paygan hamda ularning soni 0,3 mingtani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 0,8 mingta (3,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 25,4 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Andijon shahrida (33,6 %), Asaka (9,4%), Andijon (6,6 %) va Shahrixon (6,6 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda



**Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 aprel holatiga)


	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	ming birlik	jamiga nisbatan %	ming birlik	jamiga nisbatan %
Andijon viloyati	26,9	100,0	25,2	100,0
Oltinko'l	1,5	5,4	1,3	5,1
Andijon	1,9	6,9	1,7	6,6
Baliqchi	1,5	5,5	1,4	5,7
Bo'z	0,6	2,4	0,6	2,5
Buloqboshi	0,6	2,4	0,6	2,5
Jalaquduq	1,0	3,9	1,0	4,0
Izboskan	1,2	4,4	1,1	4,5
Ulug'nor	0,5	1,9	0,5	2,0
Qo'rg'ntepa	1,5	5,6	1,2	4,8
Asaka	2,4	9,0	2,4	9,4
Marxamat	1,2	4,4	1,1	4,5
Shahrixon	1,9	7,1	1,7	6,6
Paxtaobod	0,9	3,3	0,8	3,3
Xo'jaobod	0,9	3,4	0,9	3,5
Andijon sh.	8,9	33,0	8,5	33,6
Xonobod sh.	0,4	1,5	0,4	1,6

**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat
ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da**



01.04.2018 y.

01.01.2018 y.




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 94,2 %ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 4,8 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,5 % ga ortgan.


■ faoliyat ko'rsatayotganlar ■ faoliyatsizlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 25,4 % savdoda, 19,6 % sanoatda, 8,7 % qurilishda, 6,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 4,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,7 % tashish va saqlash, 2,0 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 26,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda




2018 yil yanvar-mart holatiga 1178 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 27,6 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Andijon shahrida (335 ta), Asaka (114 ta), Oltinko'l (73 ta) va Andijon tumanlarida (72 ta) tashkil etilgan. Eng kam Ulug'nor (25 ta), Buloqboshi (28 ta) Bo'z (29 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (193 ta), sanoatda (244 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (64 ta), qurilishda (131 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari (35) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (29 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (60 ta) va tashish va saqlashda (76 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-mart holatiga.	2018 yil yanvar-mart holatiga.
Jami:	923	1178
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	101	64
Sanoat	254	244
Qurilish	69	131
Savdo	264	193
Tashish va saqlash	44	76
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	43	35
Axborot va aloqa	19	29
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	15	60
Boshqa turlari	114	346

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi savdoda (-2,1 f.p), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-0,8 f.p), axborot va aloqada (-0,4 f.p), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (-0,1 f.p), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (-0,9 f.p.dan) kamayganligi, buning natijasida qurulishda (+0,1 f.p.), sanoatda (+0,7 f.p.), tashish va saqlashda (+0,4 f.p.dan) hamda boshqa faoliyat turlarida (+2,8 f.p dan) ulushining o'sishiga olib keldi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda


Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.04.2018 y.	01.04.2017 y.	farqi (+-)
Savdo	25,4	27,5	-2,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,1	2,9	-0,8
Axborot va aloqa	2,0	2,4	-0,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha	4,7	4,8	-0,1
Tashish va saqlash	3,7	3,3	0,4
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	6,9	7,8	-0,9
Sanoat	19,6	18,9	0,7
Qurilish	8,7	8,6	0,1
Boshqa turlari	26,9	24,1	2,8

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 aprel holatiga 21,0 ming tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 6,1 mingta, oilaviy korxonalar – 0,5 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 13,8 mingta, aktsiyadorlik jamiyatlari – 0,04 mingtani va boshqalar 0,6 mingtani tashkil etadi.




Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 177 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 20 taga yoki 12,7 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 97 tasi qo'shma korxonalar, 80 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Andijon shahar 75 ta (42,3 %), Andijon tumani 17 ta (9,6 %), Shahrixon tumani 14 ta (7,9 %) va Asaka tumanlari 10 ta (5,6 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Bo'z tumani 1 ta (0,6 %), Ulug'nor tumani 2 ta (1,1 %), Xonobod shahar 3 ta (1,7 %) va Paxtaobod tumani 4 ta (2,2 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 aprel holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 136 ta (76,8 %) va savdoda 12 ta (6,8 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1 ta (0,6 %), tashish va saqlashda 3 ta (1,7 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 6 ta (3,4 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 6 ta (3,4 %), boshqa faoliyat turlarida 6 ta (3,4 %) va qurilishda 7 ta (3,9 %) tashkil qilgan. Shu bilan birga axborot va aloqa faoliyat turlarida esa tashkil qilinmagan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-mart oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 3 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 taga kamaygan.


Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 1 ta, Janubiy Koreya Respublikasi – 1 ta, Pokiston Islom Respublikasi – 1 ta yangi korxonalar ro'yxatdan otgan. Shuningdek, 2018 yilda bir nechta boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-mart holtiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, sanoatda 2 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 aprel holatiga Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 20,8 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 aprel holatiga qaraganda 7,4 % ga pasaygan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 7,5 mingtasi (36,2 %) Andijon shahriga, 2,0 mingtasi (9,6 %) Asaka, 1,4 mingtasi (6,8 %) Andijon hamda 1,3 mingtasi (6,5 foizi) Shahrixon tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 20,8 mingta kichik korxona va mikrofirmalarning 6,4 mingtasi (30,8 %) – savdoda, 4,9 mingtasi (23,7 %) - sanoatda, 2,5 mingtasi (11,8 %) - boshqa faoliyat turlari, 2,2 mingtasi (10,6 %) - qurilishda, 1,7 mingtasi (8,3 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1,2 mingtasi (5,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 0,9 mingtasi (4,4 %) - tashish va saqlashda, 0,5 mingtasi (2,5 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 0,5 mingtasi (2,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-mart holatiga 891 taga yaqin kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 0,5 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Andijon shahrida (278 ta), Asaka (88 ta), Andijon (60 ta) va Shahrixon tumanlarida (52 ta) tashkil etilgan. Eng kam Ulug'nor (14 ta), Buloqboshi (20 ta) hamda Bo'z (25 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (244 ta), savdoda (192 ta) va qurilishda (131 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (29 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida (35 ta), boshqa faoliyat turlarida (60 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (60 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 aprel holatiga 523 tani tashkil etib, ulardan 490 tasi yoki 93,7 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 9,3 %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 43,9 % yoki 215 tasi sanoat, 25,3 % yoki 124 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 11,4 % yoki 56 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 8,2 % yoki 40 tasi savdo, 7,8 % yoki 38 tasi boshqa faoliyat turlar, 1,4 % yoki 7 tasi qurilish, 1,2 % yoki 6 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,6 % yoki 3 tasi axborot va aloqa hamda 0,2 % yoki 1 tasi tashish va saqlash hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrnlarni yuritish bo'limi



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan

Nashr uchun mas'ul: **U.Nurdinov**
(0371) 230-82-71, 72